



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 2

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO ADABIY MUHITI VA ABDURAHMON TAMKIN BUXORIYNING ADABIY MEROSI

Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
 Buxoro xalqaro universitet Filologiya kafedrasini mudiri

onatilichoriyeva@gmail.com

+998914042918

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari hamda shu muhitda kamol topgan zullisonayn shoir Abdurahmon Tamkin Buxoriy hayoti va ijodi ilmiy tahlil qilinadi. Shoirning turkiy va forsiy tillarda yaratgan boy adabiy merosi, xususan “Mo‘liston” asarining janriy tarkibi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, poetik uslubi va lingvostilistik jihatlari yoritiladi.

Tadqiqot jarayonida Sharifjon-Maxdum Sadri Ziyoning “Tazkori ash’or”, Abdullohxoja Abdiyning “Tazkirat ush-shuaroi mutaaxirin”, Shayx Abdulqodir Karomatullo Buxoriyning “Armug‘oni sabog‘”, shuningdek Sadridin Aynining “Yoddoshho” va “Namunai adabiyoti tojik” asarlari muhim manba sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, ma’rifatparvar olim Ahmad Donishning Tamkin haqidagi fikrlari asosida shoirning adabiy mavqei aniqlashtiriladi.

Maqolada Tamkin devonlarining qo‘lyozma nusxalari, undagi qasida, g‘azal, muxammas, masnaviy, ruboiy, qit‘a, fard, chiston va muammo janrlarining o‘ziga xosligi ochib beriladi. “Mo‘liston” asarida tashbeh, tajnis, istiora, majoz va ramz kabi badiiy san’atlarning uyg‘un qo‘llanishi hamda axloqiy-didaktik g‘oyalarning tamkinona talqini asoslab beriladi.

Tadqiqot natijasida Abdurahmon Tamkin Buxoriyning o‘zbek va tojik mumtoz adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni, uning badiiy tafakkur tarixidagi ahamiyati hamda milliy adabiy merosni boyitishdagi hissasi ilmiy dalillar asosida ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro adabiy muhiti, Abdurahmon Tamkin Buxoriy, zullisonayn shoir, Mo‘liston, mumtoz she‘riyat, g‘azal, qasida, lingvopoetika, badiiy san’atlar, XIX asr adabiyoti, jadidchilik davri, adabiy meros, tazkira, axloqiy-didaktik g‘oya.

BUKHARA LITERARY ENVIRONMENT IN THE LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURY AND THE LITERARY HERITAGE OF ABDURAHMON TAMKIN BUKHORI

Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology,

Head of the Department of Philology, Bukhara International University

onatilichoriyeva@gmail.com

+998914042918

Abstract: This article analyzes the specific features of the Bukhara literary environment in the late 19th and early 20th centuries, as well as the life and creative activity of the bilingual (Turkic-Persian) poet Abdurahmon Tamkin Buxoriy who matured within this cultural context. The poet’s rich literary heritage created in both Turkic and Persian languages is examined, with particular attention to the genre composition, ideological and artistic characteristics, poetic style, and linguo-stylistic features of his work “Mo‘liston.”

In the course of the research, important historical and literary sources are analyzed, including Sharifjon-Maxdum Sadri Ziyos “Tazkori ash’or,” Abdullohxoja Abdi’s “Tazkirat ush-shuaroi mutaaxirin,” Shaykh Abdulqodir Karomatullo Bukhori’s “Armug‘oni sabog‘,” as well as “Yoddoshho” and “Namunai adabiyoti tojik” by Sadridin Ayni. Furthermore, the views of the enlightened scholar Ahmad Donish on Tamkin are considered in order to clarify the poet’s literary status and reputation among his contemporaries.

The article also explores manuscript copies of Tamkin’s divans and reveals the distinctive features of various poetic genres represented in them, including qasida, ghazal, mukhammas, masnavi, rubai, qit‘a, fard, chiston, and muammo. Special emphasis is placed on the harmonious use of artistic devices such as simile (tashbih), paronomasia (tajnis), metaphor (isti’ora), allegory (majoz), and symbolism (ramz) in “Mo‘liston,” as well as on the poet’s refined interpretation of ethical and didactic ideas.

As a result of the study, the significant role of Abdurahmon Tamkin Bukhori in the development of Uzbek and Tajik classical literature, his place in the history of artistic thought, and his contribution to

enriching the national literary heritage are substantiated on the basis of scholarly evidence.

Keywords: Bukhara literary environment, Abdurahmon Tamkin Bukhori, bilingual poet, Mo‘liston, classical poetry, ghazal, qasida, linguopoetics, artistic devices, 19th-century literature, Jadid period, literary heritage, tazkira, ethical-didactic ideas.

ЛИТЕРАТУРНАЯ СРЕДА БУХАРЫ КОНЦА XIX – НАЧАЛА XX ВЕКА И ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ АБДУРАХМОНА ТАМКИНА БУХОРИ

Чориева Мехринисо Кийомиддиновна,

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Заведующая кафедрой филологии Бухарского международного университета

onatilichoriyeva@gmail.com

+998914042918

Аннотация: В данной статье анализируются особенности литературной среды Бухары конца XIX – начала XX века, а также жизнь и творческая деятельность двуязычного (тюркско-персидского) поэта Abdurahmon Tamkin Buxoriy, сформировавшегося в этом культурном пространстве. Рассматривается богатое литературное наследие поэта, созданное на тюркском и персидском языках, в частности жанровый состав, идейно-художественные особенности, поэтический стиль и лингвостилистические характеристики произведения «Мўлистон».

В ходе исследования в качестве важных источников проанализированы «Тазкори ашъор» Шарифжон-Махдума Садри Зиё, «Тазкират уш-шуарои мутаахирин» Абдуллохожи Абдия, «Армуғони сабоғ» Шайха Абдулкодира Кароматулло Бухорий, а также произведения Sadridin Auni «Ёддоштҳо» и «Намунаи адабиёти тоҷик». Кроме того, на основе взглядов просветителя Ahmad Donish уточняется литературный статус и значение поэта в культурной жизни своего времени.

В статье также исследуются рукописные списки диванов Тамкина, раскрываются особенности представленных в них поэтических жанров: касиды, газели, мухаммаса, маснави, рубай, китъа, фарда, чистона и муаммо. Особое внимание уделяется гармоничному использованию художественных средств — ташбиха (сравнения), таджниса (игры слов), истиоры (метафоры), маджоза (переносного значения) и рамза (символа) в произведении «Мўлистон», а также тонкой интерпретации нравственно-дидактических идей.

В результате исследования обосновывается значительная роль Абдурахмона Тамкина Бухори в развитии узбекской и таджикской классической литературы, его место в истории художественного мышления и вклад в обогащение национального литературного наследия.

Ключевые слова: литературная среда Бухары, Абдурахмон Тамкин Бухори, двуязычный поэт, Мўлистон, классическая поэзия, газель, касида, лингвопоэтика, художественные средства, литература XIX века, джадидский период, литературное наследие, тазкира, нравственно-дидактические идеи.

Kirish. Jahon adabiyotshunosligida XIX asr va XX asr boshlari adabiyotining g‘oyaviy mundariyasi, janrlar kengayishi, ijodkorlarning adabiy merosi, uning badiiy tafakkur tarixidagi o‘rni muhim ahamiyat kasb etmoqda. Adabiyotning yuksalishiga poetik hissa qo‘shgan mutafakkir shoirlar ijodi, ularning badiiy mahorati va adabiy-estetik qarashlari jahon adabiyotshunosligi ilmiy tadqiqotlari uchun asosiy obyekt bo‘lib qolmoqda. Shu bois, adabiy oqimda an‘ana, individual mahorat muammolarini ijtimoiy, badiiy-falsafiy planda yechish, uning muayyan shoir ijodidagi uslub manzarasini aniqlash, umumiy va xususiy jihatlarini globallashtirgan ilmiy-nazariy tafakkur sathida ochish imkonini bera olishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida mumtoz ijodkorlarning adabiy merosi, yaratgan asarlarining janrlar tizimi, mavzular ko‘lami, lingvopoetik va lingvistilistik prinsiplarini yangicha yondashuvda: ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma‘naviy, falsafiy-ma‘rifiy, ilohiy-irfoniy g‘oyalariga tayanib o‘rganish asosiy vazifa bo‘lib kelmoqda. Badiiy ijodda fors-turk, fors-arab, fors-turk-arab tillarida baravar qalam tebratgan shoirlar biografiyasini aniqlash, muayyan mintaqalardagi milliy adabiy-estetik tajribalarini izohlash, badiiy ijoddagi poetik o‘zgarishlar ko‘lamdorligini yangi ilmiy mezonlar asosida tadqiq qilishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Istiqolol davri o‘zbek adabiyotida oldin o‘rganilmagan va xalqimizga ma‘lum bo‘lmagan mumtoz

she'riyatdagi ba'zi adabiy manbalarni tavsiflash ishlariga e'tibor kuchaydi. “Bobolarimizga munosib binolar qurdik. Endi bobolarimizga munosib ilmiy muhit yaratishimiz kerak”⁴. Bu yo'lda buxorolik ijodkor Abdurahmon Tamkin hayoti va ijodi ibrat manbai bo'lib, uning turkiy va forsiy merosining she'riy janrlari, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini ham chuqurroq o'rganish, to'g'ri baholash va shoir asarlarini joriy yozuvda o'quvchiga yetkazish dolzarb vazifalardan biridir. Bugun shoir turkiy-forsiy adabiy merosi namunalarini ilmiy tadqiq qilish, “Mo'liston” asarini tahlil qilish natijasida, o'zbek mumtoz adabiyotshunosligini boyitish imkoniyati tug'ilmogda.

Jahon adabiyotshunosligida ayrim ma'lumotlar XIX asrda yashab o'tgan Afzal Maxdumi Pirmastiy va Hoji Ne'matullo Muhtaram (“Tazkirat ush-shuaro”)⁵ kabi tazkiranavislarning asarlarida keltirilgan. Ammo ularda buxorolik zullisonayn shoir Abdurahmon Tamkin va uning ijodi to'g'risida aniq ma'lumotlar uchramaydi. Darhaqiqat, ushbu tazkiralar Abdurahmon Tamkin haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi. Demak, Abdurahmon Tamkin ijodi hali o'zbek adabiyotida ham, tojik adabiyotida ham o'rganilmagan.

Abdurahmon Tamkin hayoti va ijodiy faoliyati haqida Sharifjon-Maxdum Sadri Ziyoning “Tazkori ash'or”, Abdullohxoja Abdiyning “Tazkirat ush-shuaro mutaaxirin” va Shayx Abdulqodir Karomatullo Buxoriyning “Armug'oni sabog'”⁶, S.Ayniyning “Yoddoshho” va “Namunai adabiyoti tojik” asarlari muhim va tayanch manbalar hisoblanib, ularda tarjimai hol tarzidagi qisqacha ma'lumotlar, shoir she'rlaridan namunalar keltirilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida Tamkin ijodi to XXI asrga qadar o'rganilmadi. XX asr boshlarida Abdurahmon Tamkin haqidagi ayrim ma'lumotlar Ahmad Donish asarlarida uchraydi. U Tamkin ijodiga yuqori baho berib, o'z zamonasining peshqadam shoirlaridan bo'lganini ta'kidlagan. Yana shoir hayoti haqidagi ma'lumotlar uning shogirdi qo'lyozmalarida ham berilgan. Biroq hozirgacha Abdurahmon Tamkin ijodi va u yaratgan turli janrdagi asarlar, keng planda, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan maxsus o'rganilmagan.

Biz, ilk bor, o'zbek adabiyotida 2022-yil 28-dekabrda himoyaga qo'yilgan “Tamkin Buxoriy hayoti va adabiy merosi” nomli dissertatsiyamizda shoirning hayoti va adabiy merosiga imkon qadar to'xtaldik.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda yashab ijod etgan Abdurahmon Tamkin ijodini o'rganish, shoirning “Mo'liston” asarini ilmiy jihatdan talqin etish va xalqimizni yana bir boy ma'naviy xazinadan bahramand qilish, o'zbek xalqi benihoyat katta adabiyot tarixiga, boy adabiy merosga egaligini, O'rta Osiyodagi barcha qardosh xalqlar qatori o'zbek xalqi ham juda qadimdan ko'plab moddiy va ma'naviy boyliklar yaratib, insoniyatning madaniy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotganini asoslash uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Sharifjon-Maxdum Sadri Ziyoning “Tazkori ash'or”, Abdullohxoja Abdiyning “Tazkirat ush-shuaro mutaaxirin” va Shayx Abdulqodir Karomatullo Buxoriyning “Armug'oni sabog'”, S.Ayniyning “Yoddoshtho” va “Namunai adabiyoti tojik” adabiy manbalar, tazkiralar va Abdurahmon Tamkin Buxoriyning “Mo'liston” asari (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasi. Dastxati tahti raqami 337. I Sh. O'z-n), adabiy manbalar asosida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhitidagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy sharoitning Abdurahmon Tamkin ijodiga ta'siri asoslangan;

Abdurahmon Tamkin Buxoriy adabiy merosining o'zbek va tojik mumtoz she'riyati an'analari tadrijiy rivojlanishidagi o'ziga xos o'rni, shoir lirikasining ishq, muhabbat, sadoqat, do'stlik, odob, axloq, to'g'rilik, rostgo'ylik kabi g'oyaviy mundariyasi, badiiyati, poetik uslubi, janriy tarkibi, til xususiyatlari dalillangan;

shoir devonlarining qo'lyozma nusxalari, “Mo'liston”, “Buxoro ta'rifida” va “Ganji shoygon” madhiyalarida tashbeh, tajnis, majoz, istiora, ramz kabi san'at turlari qo'llanganligi dalillangan va devonlarining to'qqiz lirik janr (qasida, g'azal, muxammas, masnaviy, ruboiy, qit'a, fard, chiston,

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Islom sivilizatsiyasi” markaziga qilgan tashrifidagi nutqidan. 2021-yil, 29-yanvar.

⁵ Muhtaram, Hoji Ne'matullo. Tazkirat ush-shuaro. Bo tas'heh va muqaddimai Asg'ari Jonfido. Zeri nazari Kamol Ayniy. – Dushanbe: Donish, 1975. – 399 sah.

⁶ Sadri Ziyo, Sharifjon-Maxdum. Tazkori ash'or. Sharhi holi barxe az shoiri muosiri Tojikiston va namunahoye az ash'ori onon. Bo tas'hehi Sahobiddini Siddiq. Bo ko'shishi Muhammadjoni Shakuri Buxoriy. Chopi avval. – Tehron: Surush, 1380-2001. – 428 sah.; Abdiy Abdullohxoja. Tazkirat ush-shuaro. Bo tas'heh va muqaddimai Asg'ari Jonfido. Zeri nazari Sahobiddin Siddiqov. – Dushanbe: Donish, 1983.; Shayx Abdulqodir Karomatullohi Buxoriy. Tazkirat sabboq. Bo sarsuxan va tavzehoti M.Otaxonzoda. – Toshkent: Fan, 2007.

muammo)dan iborat ekanligi aniqlangan;

zullisonayn ijodkorning “Mo’liston” asari hajmi, janriy tarkibi, mavzular olami, hikoyatlar miqdori tahlil qilinib, shoir ijodida go’zal badiiyat uyg’unligini ta’minlashda lafziy va ma’naviy san’atlarning mutanosibligi, maqollarning poeziya tiliga yaqinligi, aforizmlarning tarbiyaviy ahamiyat kasb etganligi, axloqiy-didaktik masalalarning tamkinona talqini asoslangan.

Buxoroning asl farzandlaridan biri Abdurahmon Tamkin Buxoriy XIX asr oxiri–XX asr boshlarida yashab, ijod etgan sermahsul ijod namoyandasi, zabardast shoir va zamonasining peshqadam olimlaridan edi. Bu haqda zamonasining ma’rifatparvar olimi Ahmad Donish Tamkinni ulug’ shoirlar qatorida sanab, uning ijodiga yuqori baho bergan: “Biljumla dar on zamone ki mo budem, bozori fazlu hunar naroiju kasod bud. Shohin, Muztarib va Tamkin az shuaroyi muqaddami on nazamon b udand”⁷.

Tamkin ijodini o’rganish uchun quyidagi 3 manbani nazardan o’tkazish lozim:

- 1)XIX asrda yaratilgan tazkiralalar;
- 2)Tamkinning o’z asarlari;
- 3)shogirdlari yozib qoldirgan xotiralar.

Birinchi manbaga diqqat qaratadigan bo’lsak:

“XIX asrda yashab o’tgan Afzal Maxdumi Pirmastiy va Xoji Ne’matullo Muhtaram kabi tazkiranavislarning asarlarida buxorolik zullisonayn shoir Tamkin haqida mavhum ma’lumotlar, aniqrog’i, haqiqatni buzib ko’rsatuvchi noto’g’ri ma’lumotlar uchraydi”, – deb yozadi tojik olimi Asqar Jon Fido⁸.

Darhaqiqat, ushbu tazkiralalar Tamkin haqida aniq ma’lumot bera olmaydi. Chunki o’zbek adabiyotida Tamkin ijodi hali o’rganilmagan, imkon qadar shu masalaga yechim berishga harakat qilamiz.

Endi, ikkinchi manba – Tamkin asarlariga murojaat etsak, ularda shoir o’zi haqida ayrim ishoralar qilgan. Ana shu ishoralarni diqqat markazimizda saqlab, shoirning shogirdlari xotirasini varaqlasak, o’xshashlik va yaqinlikni uchratamiz. Ushbu muvofiqlik tufayli shoirning hayoti va ijodi haqida aniqlikka erishish mumkin.

Abdurahmon Tamkinning hayoti va ijodi haqida aytilgan har xil fikrlarga chek qo’yishda shoirning shogirdi Ja’farovning⁹ xizmati katta bo’ldi.

Ja’farovning yozilmalarida; “Dar sanayi 1905 melodi (barobari 1322 hijriy) baroi tahsili ulum ozimi Buxoro gardida ...dar hovli Hoji Maxdum sok¹⁰in gardidam. Alassaboh bo Hoji Maxdum ba hovlii domullo Abdurahmoni Tamkin raftem. Domullo bisyor odami xoksor va halim bud. Sinni sharifi eshon karib boyi panjohu se rasida bud...[3]”, – degan fikrlar uchraydi. Bu ma’lumotdan shu narsa aniq bo’ladiki, agar shoir 1905-yil 53 yoshda bo’lsa, demak u 1851-1852-yillar atrofida Buxoro shahridagi Bo’yrabofi dahasida tavallud topgan. Otasi Mulla Abduxoliq degan kishi bo’lgan. Tamkinning umri Buxoroda o’tgan. U Buxoro madrasalarida tahsil olgan va ona-shahrida yashab, ilm o’rganganidan g’oyatda mamnun bo’lgan hamda tinch - osuda hayotini quyidagicha ifodalagan:

Bihisht joyi tu, Tamkin chi joyi reb dar o’

Ki monda bog’chaye yodgor az padar ast.

Tarjimasi: Jannat joying sening Tamkin, eshiging jannat eshigi,

Shu joydagi bog’ otangdan yodgordir.

Xulosa

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhiti o’zining murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoiti bilan bir qatorda, boy ma’naviy hayoti va sermahsul ijodkorlari bilan ajralib turadi. Ana shu muhitda yetishib chiqqan Abdurahmon Tamkin Buxoriy o’z davrining zabardast zullisonayn shoiri sifatida turkiy va forsiy adabiy an’analarni uyg’unlashtirgan holda yuksak badiiy meros yaratgan.

Shoirning ijodi o’zbek va tojik mumtoz she’riyati an’analarning tadrijiy rivojida muhim bosqichni tashkil etadi. Uning devonlari va ayniqsa “Mo’liston” asari janrlar xilma-xilligi, mavzu ko’lami, badiiy san’atlarning serqirraligi hamda axloqiy-falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Tamkin she’riyatida ishq va muhabbat, sadoqat, do’stlik, odob-axloq, rostgo’ylik kabi umuminsoniy qadriyatlar yuksak poetik mahorat bilan talqin etilgan.

⁷ A.Donish. Daftari musavvada. Dastnavisi ganjinai dastnavishoi sharqii AF RSS O’z-n, tahti raqami 2779, var. 47.

⁸ Fido A.J. Tamkin risolasi. – Dushanbe, 1974. – B.3

⁹ Ja’farov Said binni Ja’far-ul-Hanafiy Texnobodiy.Rudakiy nomli til va adabiyot instituti xodimi. Umrining oxirini Dushanbeda o’tkazgan

Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Tamkin ijodi uzoq vaqt ilmiy jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan. Tazkira va tarixiy asarlarda u haqda qisqa va ba’zan noaniq ma’lumotlar berilgan bo‘lsa-da, mustaqillik davrida uning merosini qayta ko‘rib chiqish, qo‘lyozmalarni ilmiy muomalaga kiritish va asarlarini zamonaviy yozuvda nashr etish zarurati yuzaga keldi.

Shunday qilib, Abdurahmon Tamkin Buxoriy merosini chuqur o‘rganish nafaqat o‘zbek mumtoz adabiyotshunosligini boyitadi, balki Markaziy Osiyo xalqlari adabiy-estetik tafakkurining uzviy rivojlanish jarayonini anglashda ham muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev V. **O‘zbek adabiyoti tarixi**. 2-kitob. – Toshkent, 1964.
2. Vohidov S. **Buxoriylar bo‘stoni**. – Buxoro: Yozuvchi, 1998. – B. 137–138.
3. Hofiz Tanish Buxoriy. **Abdullanoma**. 1-jild.
4. Ahmad Donish. **Daftari Musabbada**. *Dastnavisi ganjinayi dastnavistoyhoi sharqiy*. – AFRSS, O‘zbekiston.
5. www.literature/az;
6. <http://ziyonet/uz>

Ikramova Aziza Aminovna , Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'rganish tizimlari orqali talabalarining individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash	136
Jumaniyozova Shahnoza Rajabboy qizi , Alohida ehtiyojmand bolalar bilan ishlashning psixologik xususiyatlari	142
Jumayeva Azizabonu Mo`min qizi , Pragmatik yondashuv orqali talabalarni refleksiv kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	147
Jumayeva Habiba G'aforovna , Ta'lim jarayonida geymifikatsion texnologiyalar vositasida talabalarining o'z-o'zini baholash kompetensiyasini rivojlantirish	156
Hakimova Nargiza Supxonovna, Kattayeva Mehrangiz Nabiyevena , Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar	162
Nadirxanovna Nozima Alisherovna , Yozma madaniyatlararo muloqotni o'rgatishda talabalarining sotsiologiyistik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	167
Очиллов Фарход Эгамбердиевич , Трансформация семейных традиций и их влияние на патриотическое воспитание молодого поколения в Узбекистане	171
Qurbonova Nafisa Saidjonovna , Differensiyal ta'lim va uning pedagogik ahamiyati	178
Qo'ldoshev Mehriddin Avezmurodovich , Ahmad Donish ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida yoshlarda ma'naviy-axloqiy kamolotni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	182
G.V. Izbullayeva, Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna , Bo'lajak o'qituvchilarning media-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	187
Qo'chqorov Nodir Bozorovich , Talabalarda iqtisodiy savodxonlik madaniyatini shakllantirishning innovatsion va intensiv ko'rinishlari	192
Sadullayeva Zarnigor To'liqinjonovna , Talabalarining o'z-o'zini tarbiyalash darajasini diagnostika qilish va monitoring tizimi	197
Safarova Nigora Nasilloevna , Transformativ ta'limning metodologik asoslari: Tanqidiy pedagogika, refleksiv yondashuv va sotsiokonstruktivizm integratsiyasi	204
Teshayeva Dilnoza Chori qizi , Talabalarda ekologik mas'uliyat rivojlanishining pedagogik-psixologik omillari	210
D.I. Normatova , Ingliz tili o'qituvchilarini kreativ yondashuv asosida maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	217
Jumayeva Habiba G'aforovna , Ta'lim jarayonida geymifikatsion yondashuv orqali talabalarining evristik-kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	222
Raximbayeva Gulyora Ulug'bekovna , Talabalarda media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya o'rtasidagi bog'liqlik	228
Hamdamova Nigora Olimovna , Pedagogical approaches and methods in understanding semantic content	234
Yaxyayeva Shoiraxon Toxirboyevna , Milliy kontent vositasida bolada tahliliy fikrlashni shakllantirish metodikasi	240
Filologiya fanlari	
Зиядуллаева Гульчехра Фатилло Кызы , Семантические синонимы глагола "Пить чай" И их стилистические особенности	245
Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna , XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhiti va Abdurahmon Tamkin Buxoriyning adabiy merosi	250
Axmedova Dildora Bahodirovna, Jo'rayeva Mohigul Baxtiyor qizi , O'quvchilarning nutqiy etiket kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	255
Ahatova Durdona Davron qizi , Omon Muxtor hikoyalaridagi badiiy zamon va inson tasvirining o'ziga xosliklari	260
Baxtiyorova Durdona Ixtiyor qizi , "Korpus texnologiyalari va sun'iy intellekt integratsiyasi asosida ingliz tilida og'zaki nutq hamda o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish"	264
Nosirova Dilfuza Mustafoyevna , Masallarning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari	271
Nosirova Nodirabegim Nodirovna , Til o'rganish jarayonida sun'iy intellektning integratsiyasi: Lingvistik kompetensiyani shakllantirish, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	275
To'raboyeva Muqaddas, Pirimova Madina Ramazonovna , Ona tili o'qitish metodikasining zamonaviy konsepsiyasi: Taqiqotlar va yondashuvlar (alijon hamroyevning ilmiy maktabi misolida)	279
Ijtimoiy fanlar	